



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





## XORAZM VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

**2024- YIL YANVAR**

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar uchun)

2024-yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida jami 202,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi.



*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## 2024- yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida qurilish ishlari

*Xorazm viloyati*  
202,9 mlrd. so‘m

115,9 %

*Hazorasp tumani*  
12,0 mlrd. so‘m

117,8 %

*Urganch shahri*  
42,4 mlrd. so‘m

111,5 %

*Tuproqqal‘a tumani*  
6,7 mlrd. so‘m

118,4 %

*Xiva shahri*  
13,3 mlrd. so‘m

128,6 %

*Xonqa tumani*  
15,7 mlrd. so‘m

126,0 %

*Bog‘ot tumani*  
11,7 mlrd. so‘m

102,7 %

*Xiva tumani*  
21,8 mlrd. so‘m

117,2 %

*Gurlan tumani*  
12,3 mlrd. so‘m

127,3 %

*Shovot tumani*  
11,1 mlrd. so‘m

105,1 %

*Qo‘shko‘pir tumani*  
12,3 mlrd. so‘m

105,4 %

*Yangiariq tumani*  
9,6 mlrd. so‘m

110,0 %

*Urganch tumani*  
20,5 mlrd. so‘m

127,2 %

*Yangibozor tumani*  
13,5 mlrd. so‘m


115,9 %

2024- yilning yanvar oyida hududlar kesimida, xususan, Urganch shahri (42,4 mlrd. so‘m), Urganch tumani (20,5 mlrd. so‘m) va Xiva tumanida (21,8 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2024- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,8 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 27,3 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 125,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,9 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 97,2 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 73,4 %i yoki 149,0 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 12,8 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 80,0 %ni tashkil etdi.

80,0 %

12,8  
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 67,2 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,3 %ni tashkil etdi.

60,3 %

67,2  
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 68,9 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 46,3 %ni tashkil etdi.

46,3 %


68,9  
mlrd. soʻm

### Yillar kesimida yangi qurilish ishlarining hajmi va ulushi



## 2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmda yangi qurilish ishlarining ulushi


2024- yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Urganch shahri (873,7 mlrd. so'm), Urganch tumani (508,3 mlrd. so'm), Xiva tumani (477,3 mlrd. so'm) va Xonqa tumanida (338,5 mlrd. so'm) qayd etildi.



## 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmi – **202,9 mlrd. so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,9 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'payidi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga ko'payib, 55,1 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,6 % punktga kamayib, 103,3 %ni tashkil etdi.

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 16,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 141,6 %ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,3 % ga kamayib, 7,9 % ni tashkil etdi.


**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.





# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



## Jamiga nisbatan ulushi



Urganch shahri.



Yangibozor tumani




Gurlan tumani

*Maʼlumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 57,5 %i), Yangibozor tumanida (21,3 %) va Gurlan tumanida (7,5 %) qayd etildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2024- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,1 %i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil etgan holda 111,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**100,4 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**40,5 %**

**131,7**  
mlrd. so'm

**160,3**  
mlrd. so'm

**176,5**  
mlrd. so'm

**87,9**  
mlrd. so'm

**111,8**  
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023

2024

**116,7 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**93,7 %**


oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**122,0 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

# 2024- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so'm




## Jamiga nisbatan ulushi



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahri (24,8 mlrd. so'm), Xiva tumani (16,5 mlrd. so'm) va Urganch tumaniga (13,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

# Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,0 %ni yoki 75,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi. Shundan 46,6 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,0 %ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 22,4 mlrd. so'mni va 88,2 %ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 6,2 mlrd. so'mni va 106,9 % ni tashkil etdi.

Oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**102,1 %**

Oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**79,3 %**

**52,0**  
mlrd. so'm

**61,0**  
mlrd. so'm

**72,9**  
mlrd. so'm

**64,9**  
mlrd. so'm

**75,1**  
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023

2024

**90,1 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**104,6 %**


oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**103,3 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

# Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



**8,5** mlrd. soʻm  
Urganch shahri



**8,5** mlrd. soʻm  
Tuproqqalʼa tumani




**7,1** mlrd. soʻm  
Gurlan tumani

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahrida (8,5 mlrd. soʻm), Tuproqqalʼa tumanida (8,5 mlrd. soʻm), va Gurlan tumanida (7,1 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar oyidagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 13,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 189,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,6 % va 93,4 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 18,8 %i), Xiva tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 11,0 %i) va Urganch tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 9,9 %i) qayd etildi.

## USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.